

**MAXSUS FANLARNI O'QITISHDA KICHIK GURUXLAR BILAN ISHLASH VA  
ULARNI BAHOLASH**

**Ikmatillayeva Nilufar Avazjanovna**

*Farg'ona shahar kasb-hunar maktabi maxsus fan o'qituvchisi,*

**Umarov Bobur Bahadirovich**

*Farg'ona shahar kasb-hunar maktabi maxsus fan o'qituvchisi*

**Kamolov Shuhrat Sarimsaqovich**

*Farg'ona shahar kasb-hunar maktabi ta'lim ustasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada maxsus fanlarni o'qitishning zamonaviy usullaridan foydalanib, o'qitish jarayonini samarali tashkil etish, maxsus fanlarni o'qitishda kichik guruhlar bilan ishlashning yutuqlari, kichik guruhlarni baholash mezonlarini to'g'ri tashkillash.*

**Kalit so'zlar:** *kichik guruhlar, noan'anaviy usullar, pedagogik texnologiyalar, hamkorlik, samaradorlik, motivasiya, maxsus fanlar, jamoa, baholash mezonlari.*

Hozirgi davrda ta'lim sohasining oldida turgan dolzarb vazifalardan biri, o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalar va noan'anaviy usullarning yutuqlaridan unumli foydalanish, ularni o'quv jarayoniga tatbiq etish, hamda rivojlangan mamlakatlarning tajribalarini milliy mentalitetimiz an'analari bilan mujassamlashtirgan holda mamlakatimiz ta'lim tizimida unumli foydalanish.

Maxsus fanlarni samarali o'qitish ta'lim muassasalarida malakali mutaxassislar tayyorlashni belgilaydi. Maxsus fanlarni o'qitish o'zining ko'pgina belgilari, ya'ni mazmuni, maqsad va vazifalari, uslublari, vositalari, tashkil etilishi, o'tkazilish joyi, jixozlanishi, tuzilishi, ajratiladigan vaqti bilan ham umumta'lim va umumkasbiy fanlardan keskin farq qiladi.

Zamonaviy yoshlarga tanlagan kasblariga oid maxsus fanlarni yuqori darajada o'zlashtirishlari uchun darslarni shunchaki ma'ruza shaklida o'qitish eng samarasiz usuldir. Ularga maxsus fanlarni jozibali, noodatiy, amaliy usullar va o'quvchining o'zi hech qayerdan topa olmaydigan ma'lumotlar orqali o'rgatish lozim.

Ko'pchilikka ma'lumki dars mashg'ulotlarini quyidagi shakllarda amalga oshirish mumkin:

- a) yakka tartibda ishlash
- b) juftlikda (hamkorlikda) ishlash
- c) kichik guruhlarda ishlash
- d) guruhiy ta'lim shakli
- e) jamoaviy ta'lim shakli
- f) ommaviy ta'lim shakli.

Aynan kichik guruhlarda ishlash zamonaviy ta'limning eng samarali shakli hisoblanadi. Maxsus fanlarni o'qitishda ham o'z tajribamdan kelib chiqib aytishim mumkinki, kichik guruhlar bilan ishlash orqali yuqori natijaga erishish mumkin.

Maxsus fanlarda kichik guruhlar bilan ishlashning afzalliklari:

-vazifani hamkorlikda bajarish jarayonida, ta'lim oluvchilarda, o'rtoqlari tomonidan bildirilgan fikrlarni muxokama qilishga motivasiya paydo bo'ladi;

- o'quvchilar bir-biriga savollar beradilar, shuning uchun, ular savollarni aniq shakllantirishi va tushuntira bilishlari zarur, tushunish va tushuntira olishga erishish uchun esa, ular bir-birlarini diqqat bilan eshitishlari kerak;

- guruhlar bilan ishlash vaqtida, ta'lim oluvchi o'quvchilar yordam berishlarini so'raydilar va boshqalarga yordam berishni o'rganadilar;

- o'rtacha qobiliyatga ega yoki xarakteri bo'yicha passiv o'quvchilar o'z bilimlari va mahoratlarini namoyon qilish imkoniyatini oladilar. 3-7 kishidan iborat guruhda, passiv o'quvchi 25 kishilik guruh oldida o'zini nisbatan ancha erkin his etadi.

- Kichik guruhlarda ishlash,atrofdagilarga bo'lgan munosabatni o'zgartiradi, "men" va "ular" dan "biz"ga o'tishni ta'minlaydi va o'zini guruhning yaxlit bir bo'lagi sifatida his qilish imkonini beradi. Bu esa o'quvchilarning bir maqsad yo'lida birlashishini shakllantiradi.

Kichik guruhlarni tuzishda ixtiyoriy, joylashuv tartibi asosida, yonma-yon o'tirganlar, hisoblash orqali, raqamlar yoki harflarni tortish usullaridan foydalanish mumkin.

Misol uchun: "O'zbek milliy taomlari" maxsus fanidan kichik guruhlarni tuzish uchun 1ta qutiga 28ta taomning nomlari yozilgan qog'ozchalar solinadi. O'quvchilar qutidan bittadan qog'ozni tortadilar va ular quyidagicha guruhlarga taqsimlanadilar:

I-guruh, "Xamirli taomlar" (norin, xonim, lag'mon, manti, ugra, chuchvara, mampar)

II-guruh, "Guruchli taomlar" (palov, mastava, shavla, guruchli do'lma, guruchli xasip, guruchli kotlet, shirin guruch)

III-guruh, "Sut maxsulitlari" (qatiq, qaymoq, pishloq, sariyog', smetana, qurut, muzqaymoq)

IV-guruh, "Salatlar" (Baqlajonli salat, karamli salat, bodringli salat, go'shtli salat, sabzili salat, pishloqli salat, mevali salat) .

O'quvchilar qog'ozchada yozilgan taom nomiga qarab o'z guruhini aniqlab oladilar.

Kichik guruhlar bilan ishlash jarayonida ularga beriladigan topshiriqlar, guruhning barcha a'zolariga umumiy topshiriqlar yoki guruhning har bir a'zosiga individual beriladigan topshiriqlar asosida tanlanishi kerak. Kichik guruhlar bilan ishlashda yangi interfaol usullardan foydalanish mumkin. Maxsus fanlarda kichik guruhlar bilan ishlashda "Uch bosqichli intervyu", "Aqliy hujum", "Charxpalak", "Nilufar guli", "Klaster", "Asalari galasi", "Ajurli arra", "Baliq skeleti" kabi metodlardan foydalanish orqali yuqori samaraga erishish mumkin. Umuman olganda har bir



o'qituvchining o'zi kashf qilgan dars o'tish metodlari bo'ladi. Qaysi metoddan foydalanishimizdan qat'iy nazar eng asosiysi yuqori natijaga erishishdir.

Kichik guruhlarni baholashda maxsus fan o'qituvchisining kuzatish qobiliyatiga juda yuqori talablar qo'yiladi. Chunki o'qituvchi alohida guruh a'zolarining individual yutuqlarini ham, guruh bajargan umumiy topshiriqlarni ham adolatli baholay olishi lozim. Maxsus fanlarni o'qitish jarayonida guruhlar bilan ishlash usulidan foydalanish natijasida o'quvchining bilimi ortadi, shaxsiyati rivojlanadi, guruh a'zolari o'z g'oyalari va fikrlari bilan ko'proq o'rtoqlashadi, jamoa bilan ishlashni o'rganadi, do'stona raqobat vujudga keladi. Xozirgi vaqtda maxsus fan o'qituvchilarining asosiy vazifalaridan biri o'quvchida mustaqil fikrlash, ijodkorlik va mustaqil bajarish malakasini hosil qilishdir. Yuqorida berilgan tavsiya va ma'lumotlarning barchasi maxsus fanlarni o'qitishning maxsuldorligini ortishiga olib keladi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1.Q.T.Olimov, D.F.Jalolova, M.N.Karimova, Sh.N.Nutfullayeva "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, Toshkent-2013.

2.M.Kamoliddinov,B.Vaxobjonov "Innovatsion pedagogic texnologiya asoslari, savollar,javoblar", Toshkent-2010.

3.M.Klark "Texnologiya obrazovaniya ili pedagogicheskaya texnologiya" jurnal "Perspektivi"-1983.

4.K.Ishmatov "Ilg'or pedagogik texnologiyalar", Namangan-2003.

5.N.Saidaxmedov "Yangi pedagogik texnologiyalar", Toshkent-2003.